BANK TIZIMI VA KREDIT MUNOSABATLARINING IQTISODIY MOHIYATI HAMDA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Norqulov Habibullo
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Bank ishi kafedrasi assistenti

Xaqberdiyev Norbek Aslam o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
BI-525 guruh talabasi
xaqberdiyevnorbek062@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.19997521

Annotation.
This article analyzes theoretical views on the stages of the development of the banking system and credit relations, their role in the economy and scientific significance . The study covers the functions of commercial banks, credit principles and their impact on economic growth in the transition from a centrally planned economy to a market economy. The article aims to reveal the complex and multi-stage nature of this process by comparing evolutionary and reformist models.
Keywords: banking system, credit, economic reforms, transition economy, institutional changes, privatization, competitive environment.

Annotatsiya.
Mazkur maqolada bank tizimi va kredit munosabatlarining rivojlanish bosqichlariga oid nazariy qarashlar va ularning ilmiy-amaliy ahamiyati tahlil qilinadi . Tadqiqotda markazlashgan reja iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonining asosiy bosqichlari, ularning mazmun-mohiyati hamda institutsional o‘zgarishlar yoritiladi . Maqola bozor iqtisodiyotiga o‘tishning turli modellarini solishtirish orqali transformatsiya jarayonini ochib beradi .
Kalit so‘zlar: bank tizimi, kredit, iqtisodiy islohotlar, o‘tish iqtisodiyoti, institutsional o‘zgarishlar, xususiylashtirish, raqobat muhiti.

Kirish.
Jahon iqtisodiy taraqqiyotida bozor munosabatlariga o‘tish jarayoni murakkab, ko‘p bosqichli va tarixiy sharoitlarga bevosita bog‘liq bo‘lgan hodisa hisoblanadi . Ayniqsa, markazlashgan reja iqtisodiyoti hukmron bo‘lgan davlatlarda bank va kredit mexanizmlarini shakllantirish nafaqat iqtisodiy, balki institutsional, ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarni ham talab etadi . Bozor iqtisodiyotiga o‘tish yagona andoza asosida amalga oshirilmaydi; turli mamlakatlar bu jarayonni o‘zining tarixiy rivojlanish darajasi va resurs salohiyatidan kelib chiqib, bosqichma-bosqich amalga oshirgan Ayniqsa, markazlashgan reja iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan davlatlarda mazkur tizimni shakllantirish murakkab va ko‘p bosqichli jarayonni talab etadi. Chunki bank tizimi nafaqat moliyaviy resurslarni taqsimlaydi, balki iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotida ham bank tizimini isloh qilish, kreditlash hajmini oshirish va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli mazkur mavzuni o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir .

1. Bank va kredit munosabatlarining nazariy asoslari

Bozor munosabatlariga o‘tish jarayoni faqatgina xo‘jalik yuritish shakllarining o‘zgarishi bilan cheklanmaydi . Klassik iqtisodiy qarashlarga ko‘ra, A. Smit bozor mexanizmini “ko‘rinmas

qo‘l” orqali iqtisodiy muvozanatga erishish vositasi sifatida talqin qilgan bo‘lib, bu jarayonda banklar kapital harakatini ta'minlovchi asosiy bo'g'indir. Biroq J. Stiglitsning fikricha, bozor institutlari shakllanmasdan turib, faqat narxlarni erkinlashtirish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlay olmaydi .Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki bosqichida iqtisodiy liberallashtirish amalga oshiriladi. Bu jarayonda narxlar erkinlashtiriladi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarga mustaqillik beriladi. Masalan, O‘zbekistonda 1990-yillardan boshlab iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib, bank tizimi ikki pog‘onali tizimga o‘tkazildi.

Keyingi bosqichda xususiylashtirish jarayoni amalga oshiriladi. Bu bosqich kredit munosabatlarining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, chunki xususiy sektorning kengayishi kredit resurslariga bo‘lgan talabni oshiradi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi sezilarli darajada oshgan, bu esa iqtisodiy faollikni rag‘batlantirgan.

2. Kredit munosabatlarining rivojlanish bosqichlari

Bozor munosabatlariga o‘tishning dastlabki bosqichi sifatida iqtisodiy liberallashtirish jarayoni ko‘rsatiladi . Bu bosqichda xo‘jalik yurituvchi subyektlarga mustaqillik berish va narxlarni erkinlashtirish asosiy vazifa hisoblanadi . Keyingi bosqich — xususiylashtirish va mulkchilik munosabatlarini tubdan o‘zgartirish bosqichidir . D. Nort ta'kidlaganidek, mulk huquqlari aniq belgilanmagan sharoitda bozor mexanizmi to‘liq ishlamaydi .

3. Bank tizimida transformatsiya va ijtimoiy omillar

Bozor munosabatlariga o‘tishda bank tizimi, fond bozori va soliq tizimi samarali faoliyat yuritishi barqarorlik shartidir . Bu jarayonda korxonalar faqat tashkiliy tuzilmani o‘zgartirish bilan cheklanmay, boshqaruv madaniyati va riskni baholash yondashuvlarini ham yangilashlari lozim . Aholining iqtisodiy ongini shakllantirish va moliyaviy savodxonlikni oshirish bank islohotlarining ajralmas qismi hisoblanadi . Parallel ravishda, samarali ijtimoiy siyosat yuritish, aholining zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash va bandlikka ko‘maklashish dasturlari bozor munosabatlariga o‘tishning ijtimoiy tayanchini tashkil etadi .

Xulosa.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bank tizimi va kredit munosabatlariga o‘tishning har bir bosqichi o‘ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi . Iqtisodiy erkinlashtirish, mulkchilikni o‘zgartirish va raqobat muhitini rivojlantirish o‘zaro chambarchas bog‘liqdir . Institutsional islohotlar, huquqiy asoslarning mustahkamligi va davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish muvaffaqiyatning asosiy omillari hisoblanadi . Bosqichma-bosqich va ijtimoiy yo‘naltirilgan yondashuv iqtisodiy transformatsiyaning eng maqbul yo‘lidir .

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Smit, A. Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot. London: Methuen, 1776.
2. Keyns, J. M. Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi. London: Macmillan, 1936.
3. Nort, D. Institutlar, institutsional o'zgarishlar va iqtisodiy samaradorlik. Kembrij: Cambridge University Press, 1990.
4. Stiglits, J. Globallashuv va uning salbiy oqibatlari. Nyu-York: W. W. Norton & Company, 2002.
5. Samuelson, P. A., Nordxaus, W. D. Iqtisodiyot. Nyu-York: McGraw-Hill, 2010.
6. Kornai, Ya. Erkin iqtisodiyot sari yo'l:
7. sotsialistik tizimdan o‘tish. Nyu-York, 1990.
8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Tahliliy ma'lumotlar.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobotlar.
10. Jahon banki. Jahon rivojlanish hisoboti (so'nggi yil).
11. Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF). Xalqaro moliyaviy statistika (so'nggi yil).